

Bolalar va o'smirlar kutubxonasi

**MIRAZIZ A'ZAM**

# **SHU SO'LIM YURT EGASIMAN**



**Bolalar va o‘smirlar kutubxonasi**

**MIRAZIZ A’ZAM**

**SHU SO‘LIM YURT EGASIMAN**

**“Chinor ENK”  
ekologik-noshirlik kompaniyasi  
Toshkent – 2016**

**UO‘T 821.512.133-1-93**

**KBK 84(5 O‘)6**

**A 94**

**A‘zam, Miraziz**

Shu so‘lim yurt egasiman, [Matn]: Bolalar uchun she‘rlar va dostonlar/ – Toshkent: “Chinor ENK” ekologik-noshirlik kompaniyasi, 2016. – 96 bet.

Qadrli bolalar! Qo‘lingizdagi kitobga hur va obod yurtimiz – jonajon O‘zbekistonimizning so‘lim va jannatmonand tabiatini, tengdoshlaringizning tabiatga munosabatlarini aks ettirgan she‘rlar hamda dostonlar jamlangan. Tevarak-atrofingizdagi gullar-u daraxtlar, qushlar-u hasharotlarni diqqat bilan kuzatsangiz, ularning har birida Ona tabiatning turfa mo‘jizalari borligini ko‘rasiz. Tabiatni sinchiklab kuzatgan, undagi barcha tirik mavjudotlarning shakl-u shamoyili, fe‘l-atvorini mahorat bilan tasvirlagan, qolaversa, ayrim qahramonlarini fikrlar-u kechinmalar bilan boyitgan shoir bobongiz Miraziz A‘zamning sodda va samimiy bitiklari Sizlarga manzur bo‘lishiga ishonamiz. Ushbu kitobni mutolaa qilgach, Sizlar ham, albatta, tabiat bilan do‘stlashasiz, uning ne‘matlarini asrab-avaylaysiz, degan umiddamiz.

**UO‘T 821.512.133-1-93**

**KBK 84(5 O‘)6**

© “Chinor ENK”, 2016.

© M. A‘zam, 2016.

**ISBN 978994331384-2**

*O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining  
25 yilligiga bag'ishlanadi.*



## **VATAN BIZNING UYIMIZ**

Vatan bizning uyimiz,  
Vatan bizning ko'chamiz,  
Soylarda sof suvimiz,  
Maza qilib ichamiz.

Vatan bizning tog'imiz,  
Olma, anor bog'imiz.  
Bug'doy, arpa dalamiz,  
O'ynab maza qilamiz.

Oltin to'la konimiz,  
Tandir to'la nonimiz,  
Vatan – maktab, onamiz,  
O'qishni o'rganamiz.

Qirq xil hunar o'rganib  
Yurtimni shod qilaman.  
Go'zal, erkin, muzaffar,  
Boy va obod qilaman.

Men shu yerda ulg'aydim,  
Vatanimni sevaman.  
Kerak bo'lsa yurt uchun  
Jonimni ham beraman.



## MUSTAQILLIKNI KUYLAYMAN

Mustaqillik, bu – inson  
Hur yashaydi degani.  
Hurlikdagi insonlar  
Zo‘r yashaydi degani.

Zo‘r yashagan insonning  
So‘zlari botir bo‘lar.  
Bosgan qadami o‘tlig‘,  
Bamaylixotir bo‘lar.

Hur odamning lafzini  
Sevib tinglar olimlar,  
Uning zo‘r so‘zlaridan  
Cho‘chib turar zolimlar.

Hur odamning nafasi  
Yulduzlarga tegadi,  
Takaburning gerdaygan  
Bo‘ynini sal egadi.

Hur odamda hech qachon  
Vahm-qo‘rquv bo‘lmaydi,  
Hur odamning fe‘lida  
Yolg‘on to‘quv bo‘lmaydi.

Chunki uning ortida  
Xalqi bor, qonuni bor.  
Odil yashovchi xalqning



G'ururi bor, shoni bor.  
Yashasin mustaqillik,  
Yashasin hur insonlar  
Shunday insonlar bilan  
Olg'a yurar zamonlar.





## **BIZ YENGAMIZ BO‘RONLARNI**

*(Marsh)*

Olis yo‘llar maftun etdi,  
Olis yo‘llar hamroh bizga.  
Tog‘lar, ko‘llar maftun etdi –  
Tog‘lar, ko‘llar hamroh bizga.

Naqarot:

Biz qo‘rqmaymiz bo‘ronlardan,  
Biz yengamiz bo‘ronlarni.  
Hayiqmaymiz dovonlardan,  
Egallaymiz dovonlarni.

Qorli, muzli cho‘qqilar ham  
Qolib ketar poyimizda.  
Jasur qo‘shiq bizga hamdam  
Har bir borgan joyimizda.

Naqarot:

Maqsadimiz tog‘day ulug‘,  
Chambarchasdir tutash qo‘llar.  
Ozodlikning yoli qutlug‘,  
Olg‘a, do‘stlar, og‘aynilar.

Naqarot:



## SAYYOHLAR QO'SHIG'I

Har kim har narsa ko'zlar,  
Har kim har narsa izlar.  
O'n o'rtoq sayyoh bo'ldik,  
Tanidik elni bizlar.

Tong bilan birga turdik,  
Tog'da ravochlar terdik.  
Yo'llarda to'xtab o'tdik,  
Ona yurt husnin ko'rdik.

Tonglari nozik-nihol,  
Suvlari zilol-zilol.  
Paxtazor vodiy yotar  
Xayolga cho'mgan misol.

Ketma-ket azim tog'lar,  
Sukutga cho'mgan bog'lar.  
Yurtini taniganning  
Qalbida qolmas dog'lar.





## JAVZO KELDI

May keldi, javzo keldi,  
Issiqli avzo keldi.

Yiltiradi, tut pishdi.  
Qoqdik, chodirga tushdi.

Kappalab yedik birga,  
Quvvati yetar yilga.

Gilosga ham kirdi rang,  
Ali unga soldi chang.

Tatib ko'rmasa bo'lmas,  
Quvnamas, ko'ngli to'lmas.

Oynur esa hovuchlab  
Terib oldi dovuchcha.

Nordon bo'lsa ham xushxo'r,  
Tuz bilan yeyishga zo'r!

Yeng, suvlari sochilar,  
Ishtahangiz ochilar...



## ONA TILIM – GO‘ZAL TIL

Yuz ming so‘zni bilaman  
Ma’nosi bilan,  
Rangi, tusi, jilvasi,  
Jilosi bilan.  
Do‘stlariga bulbuli  
Go‘yosi bilan  
Yovlarini lol qilgan  
Ixlosi bilan.

Yuz ming so‘zni o‘rganib  
Bildim o‘zimni,  
Kimligimni angladim,  
Ko‘rdim izimni.  
Ming yillarni ko‘rsatgan  
Zalvor so‘zimni  
Sevib qoldim  
Har tovush, imlosi bilan.

Ona tilim – go‘zal til,  
Qanotim mening.  
Ilhom tulporim mening,  
G‘irotim mening.  
Mangulikka bog‘lovchi  
Hayotim mening.  
Yuraman qalbda so‘zning  
A‘losi bilan.



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi <https://kitobxon.com/uz/asar/3099> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси <https://kitobxon.com/uz/asar/3099> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию можно найти на сайте <https://kitobxon.com/ru/asar/3099>